

OMINA SHENLIKO‘G‘LINING “EHROMLAR QIZI LAYLO” ASARIDA AYOL OBRAZI TAHLILI

Tovboyeva Gavhar, O‘z-Fin pedagogika instituti talabasi
Ilmiy rahbar: G.Raximova, O‘z-Fin pedagogika instituti dotsenti

Annotasiya: Adabiyot tilsimini o‘z kaliti ila ochibgina qolmay, balki unda o‘z izini qoldirgan turkiyalik adiba Omina Shenliko‘g‘lining qiyinchiliklarga to‘la bo‘lgan hayoti yo‘li unung asarlarida ham aks etgan. Ushbu maqolada adibaning o‘zbek tiliga tarjima qilingan “Ehromlar qizi Laylo” asaridagi Laylo obrazi timsolida bir ayolning vatanga muhabbati, sabr-bardoshi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: adiba, oynoma, iymon, qamoq, ehrom, din, nomus, vatan, qahramon, terror

Adabiyot bir musaffo havoki, undan faqat adabiyotga oshno qalblargina nafas oladi, bahramand bo‘ladi. Qolganlar ham balki nafas olar, ammo undan kuch va ilhom olmaydi, ololmaydi. Bu havoning sururini his qilmoqlikning o‘zi ham bir – saodat.

Har bir millat va davr o‘zining yorqin yozuvchilari va adiblariga ega. XXI asrda turk adabiyotida salmoqli ijod qilayotgan turkiyalik adiba OminaShenlik o‘g‘li noyob iste’dod egasi bo‘lib, uning asarlari o‘ziga xosligi bilan boshqa asarlardan tubdan farq qiladi. OminaShenlik o‘g‘li 1953-yilning 27-may sanasida Turkiyaning Giresun viloyati Darfali tumaniga tegishli bo‘lgan Anbaralan qishlog‘ida dunyoga kelgan. U yoshlik davridayoq izlanishni boshlagan. Yozuvchi boshlang‘ich maktabni va Imom Xatib (sirtqi) litseyini qirq yoshlar atrofida tamomlagan. Turmush qurgandan so‘ng, u umr yo‘ldoshi Rejep O‘zkandan va boshqa bir nechta o‘qituvchilardan saboq olgan. Qohiradagi Azhar oliy ta‘lim dargohini esa ellik yoshdan o‘tib bitirgan. Ilk ijod namunalari 1976-yillarda chop etila boshlagan. Yozuvchining asarlari “Bursa Marmara”, “Milliy Gazeta”, “Yangi Osiyo” gazetalari va “Sur” va “Ribat” jurnallarida chop etilgan. U 1985-yil fevralida turmush o‘rtog‘i bilan birgalikda “Maktub” jurnalini chiqardi.

Omina Shenliko‘g‘li “Yoshlar iymonini savollar bilan o‘g‘irlashdi” asari tufayli sudlangan. Adiba 2,5 yilga qamoq jazosiga mahkum qilingan. U qamoqda bo‘lganda ham 7 ta kitob yozdi.

Adibani Turkiyada “ramonlarning onasi” deya e‘zozlashadi. Yozuvchining to‘qsondan ziyod kitoblari mavjud. Ko‘plari o‘zbek tarjimonlari tomonidan ona tilimizga tarjima qilindi. Bular, “Imomning maneken qizi”, “Nasroniy atirguli”, “Mariya”, “Yolvoraman xiyonat qilma”, “Ayollarni ayollar ham ezadi”, “Ishqqa yengilmayman”, “Iskanja”, “Ehromlar qizi Laylo” kabilardir. O‘zbek kitobxonlari Omina Shenliko‘g‘li bilan shu asarlari orqali tanisha boshlaganlar.

Adiba nazmda ham o‘z ijodini yo‘lga qo‘ygan va uchta she‘riy kitob yozgan bo‘lib, ulardan “Mahkum tuyg‘ular” nomi bilan atalgan she‘riy to‘plami sotib olinish bo‘yicha Turkiyada rekord qayd etgan. Ayrim she‘rlari esa “Yangi davr” gazetasida chop etilgan. Adiba asosan o‘zining ma‘ruzalari bilan Turkiya va boshqa davlatlarga mashhur bo‘lgan

Yozuvchining asarlarida Turkiya hayotining turli tomonlari o‘zining badiiy ifodasini topgan. Adiba ijodida zamondan o‘zib yashayotgan shaxslarning dunyoqarashi va hayot uslubi haqidagi fikrlar asosiy g‘oya sifatida olingan. Ayniqsa, adiba qizlar hayotini, ularning oilaga, vatanga, o‘z e‘tiqodida bo‘lgan mehr-muhabbatli haqidagi mavzularga ko‘p to‘xtaladi. Bundan tashqari, Omina Shenliko‘g‘li aksariyat asarlarini yosh ayol va qizlarimizning irodasi hamda sabru matonatlaridagi

kamchilik va ustun tomonlarni hamda uning zaif nuqtalari haqidagi tushunchalarni qalamga oladi. Yozuvchi asosan G'arb hayotini tahlil hamda tanqid qiladi.

Bir qizning yoshlik xatosi, bir ayolning sabr-matonati va vatanga bo'lgan muhabbati aks etgan "Ehromlar qizi Laylo" romanini o'qir ekansiz, asar qahramonlari, ya'ni uch avlod hayotining turli sinovlari, taqdirning kutilgan va kutilmagan siylovlari bilan evrilishiga guvoh bo'lasiz.

Aslida, asarning nomi bosh qahramon Layloning otasiga isyon qilib ehromlar yoniga chodir qurib yashaganligi uchun Saidbey tomonidan qiziga nisbatan ishlatilgan kinoyadir. Yosh va g'o'r Laylo Husnu ismli yigitni sevib qoladi. Otasining qarshiligiga qaramay, o'z sevgilisini tanlagan Layloning baxtiyor va shirin boshlangan kunlari shu qadar achchiq va shu qadar ayanchli yakun topadiki, voqea rivojini kuzatib borayotgan o'quvchining qalbi o'rtanmay qolmaydi. Xiyonat dardiga chidolmagan ayol ajrashadi. Ehromlar qizi Layloga ajrashayotgan chog'da eri shunday deydi: "Qonun men tomonda, esdan chiqarma. Bu tuproqlardan Fir'avn o'tgan. Adolat izlama". Uning gaplarida, balki achchiq haqiqat yashringandir, negaki Layloning keyingi taqdiri adolatsizlikka qurbon bo'lganiga shubha yo'q. Bir vaqtlar gapiga kirmagan beva ayolni Saidbey qabul qilmaydi va o'z qizini uydan haydaydi. Bir farzandi bilan ko'chada qolgan qahramonning hayoti uning haddan tashqari "chiroyli" bo'lganligi uchun yanada og'irlashadi. Buning yorqin isboti esa uning uyi devoriga yozib qo'ygan she'rida ham mujassamdir:

Sen bilan oramda farq yo'q, hey mushuk,

Ikkimizni yig'latgan bir qora musht.

Senga tekkan zarba joning og'ritar,

Menga tushgan zarba ruhimni teshar.

Laylo qayta oila qurishdan voz kechib, hayotini o'g'liga bag'ishlaydi. Ammo bu borada ham u omadsizlikka uchradi. Misr uzoq vaqt inglizlarning mustamlakasi bo'lgan. Inglizlar Misrda quyidagi odatlarni qoldirganlar:

- yoshlarning nikohsiz holda uchrashib yurishi. Albatta, zakiy musulmonlar bundan mustasno.

- mutaassiblikdan qutilmaslik uchun sharoit yaratish.

- uyga oyoq kiyimi bilan kirish.

- musulmonlarga islomning poklik shartlarini unuttirish.

Inglizlar qoldirgan odatlar, afsuski, Layloning o'g'li Alining ongiga joylashib olgan edi. Allohning yo'qligiga ishongan farzand, o'z onasidan, dinidan, vatanidan voz kechib ketayotgan chog'da Laylo o'g'liga shunday nola qiladi: "Unday qilma o'g'lim! Yolvoraman, senga! Bolam, senga yaxshi bo'lsin, ko'ngling o'ksik bo'lmasin deb harakat qildim... Bolam qayt! Seni jangari qilolmayman!..".

Sevgan yorining, umr yo'ldoshining xiyonati, go'dagining kelajagi va istiqboli uchun o'zining hayotini ma'lum ma'noda qurbon qilgan Layloning o'g'liga qilgan iltijolarini eshitish, his etish juda og'ir. Qayerdadir yo'l qo'yilgan xato yoxud bo'shliq, onaizorning farzandi o'z orzusidagidek inson bo'lib ulg'ayishi yo'lida qilgan ming harakatini butunlay aksiga evrilish qildi. Ammo achchiq yakun bo'lsa-da, onaning xalqi, Vatani oldida adolatli qaror qabul qilishi yaralangan yuragi, boy bergan farzandi uchun taskin bo'la oladi. Laylo ona bo'lib emas, vatanga sadoqatli fuqaro bo'lib, o'z o'g'lini o'ldiradi. Bu bilan, balki o'g'lini katta gunohdan saqlab qoladi. Asar yakuni kitobxonni chuqur o'ylashga majbur qiladi. Negaki, ijobiy yakunga ega bo'lmagan asar o'quvchini qayerda qahramonlar xato qilganini aniqlashga va asar uchun ijobiy yechim topishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, asar muhabbat, nafrat, burch, vafo, alam, shubha, sog'inch haqidagi asardir. Umuman olganda, adibaning asosiy maqsadini uning asarlaridagi muhim jihatlarni tushunish qiyin emas. Uning aksariyat asarlari yoshlarni ogohlikka, to'g'ri yo'lga chorlash g'oyasini ilgari

surgan. Bundan tashqari, yozuvchi hozirgi kunda jamiyatimizda qanday g'oyalar ilgari ketayotgani-yu, qanday g'oyalar chetda qolayotganligini obrazlar hayoti misolida yoritishga harakat qilgan. Shu bilan birga, yoshlar ongidagi, axloqidagi, tarbiyasidagi o'zgarishlar va ularning qanday yo'ldan yurganliklari eng maqbul yo'l ekanligi haqidagi mavzularga ko'proq e'tibor qaratgan. Adiba faqatgina bir adabiy usulda emas aksincha rang-barang usulda ijod qilishga uringan. Eng e'tiborli jihati, uning asarlari faqat bir g'oyani emas, balki turli tushunchalarni qamrab olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Omina Shenliko'g'li. Ehromlar qizi Laylo. Roman. – Toshkent: “Zukko kitobxon”, 2022. – 272-b.
2. Omina Shenliko'g'li. 500 yildan so'ng. Roman. – Toshkent: “Azon kitoblari”, 2022. –120-b.
3. Omina Senliko'g'li. Ishqqa yengilmayman. –Toshkent: “Zukko kitobxon”, 2022. – 257-b.
4. “Civil.uz” sayti <https://civil.uz>
5. “Teletype” sayti. <https://teletype.in> Scienc
6. Qarshiyevna, R. G. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. " ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION, 10(1).
7. Gulbahor, R. (2023, April). O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA MATN VA RASMLARNING O'RNI. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 4, pp. 33-36).
8. Rahimova, G., & Akramova, S. (2023). Legendary Heroine Women of History" Tamaris" and" Queen Sondok". World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(2), 99-101.
9. Rahimova, G., & Sh, F. (2023). ALISHER NAVOIY IJODIDA TA'LIM VA TARBIYA. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 4(1), 60-63.
10. Rahimova, G., & Norbekova, S. (2022). ANVAR OBIDJON SHE'RIYATIDAGI YUMORISTIK MOTIVLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(10), 110-113.